



ZAMONAVIY LIBOSLARDA QUROQ TEXNIKASINI QO'LLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18381157>

Safasheva Surayyo Sadikovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

“San’at” kafedrasi o‘qituvchisi

safashevasurayyo1977@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola quroqchilik san’atining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq an’analar va zamonaviy liboslarda quroq texnikasini qo‘llash va liboslar yaratish yoki bezash borasida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, xotin-qizlarni hunarga o‘rgatish, ularni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish orqali mehnat resurslari samaradorligini oshirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy quroqchilik, quroqchilik san’ati, ijodkorlik, estetik did, tejamkorlik, ma’naviy tarbiya.*

Аннотация: *В данной статье представлены традиции, связанные со специфическими аспектами искусства вышивки, а также применение техники вышивки в современной одежде и при создании или декорировании одежды. Цель статьи также состоит в повышении эффективности использования трудовых ресурсов путем обучения женщин этому ремеслу и направления их на предпринимательскую деятельность.*

Ключевые слова: *Национальное искусство ткачества, искусство ткачества, творчество, эстетический вкус, бережливость, духовное воспитание.*

Abstract: *This article presents the traditions related to the specific aspects of the art of embroidery, the application of the technique of embroidery in modern costumes, and considerations on the creation or decoration of dresses. It also aims to increase the efficiency of labor resources by training women in the craft and directing them to engage in entrepreneurship.*

Keywords: *National art of weaving, art of weaving, creativity, aesthetic taste, thrift, spiritual education.*

KIRISH

Mamlakatimizda ijodkorlikka, tasviriy san’atga, xalq amaliy san’ati va hunarmandchilik sohalar uchun kadrlar

tayyorlashning me’yoriy-huquqiy asoslari moddiy-texnik bazasi yaratildi. Xotin-qizlarni hunarga o‘rgatish, ularni tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga



yo'naltirish orqali mehnat resurslari samaradorligini oshirish, jamiyatda xotin-qizlar o'z o'rinlarini topishlari natijasida ularning tadbirkorlik kompetensiyalarini takomillashtirishning didaktik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirishga imkoniyat yaratildi. "O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash" bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

Quroqchilik yoshlarda kamxarjlik, tejamkorlik, ekologik ong, estetik did va amaliy mahoratni rivojlantiradi. Milliy an'alar bilan uyg'unlashgan bunday ta'lim jarayoni talabalarga ham amaliyot, ham milliy merosni bilish imkonini beradi. Bunda: -ekologik ta'lim (resurslarni tejaj, qayta ishlash madaniyati),

- amaliy mehnat malakasi,
- milliy badiiy an'analarni saqlash,
- ijodiy yangilik yaratish qobiliyati

kabi jarayonlarni birlashtiradi.

O'zbek xalqi qadimdan 'isrof qilmaslik' "qoldiqdan ham hunar chiqarish" an'analari mavjud bo'lgan. Matolarni ulash orqali qolgan parchalardan yangi buyum yaratish (ko'rpa, ko'rpacha, yosti) xalq orasida keng qo'llanilgan.

Ushbu an'analarni ta'limga joriy etishda;

- talabalarning qiziqishini oshiradi;

- milliylikni o'ziga xosligini uqtiradi;

- qiymatli badiiy me'rosni saqlaydi;
- ijodiy ishlashga rag'batni kuchaytiradi

Quroqchilik-bu kamnarx, mazmunli va milliy ruhga boy pedagogik yo'nalish bo'lib, uni ta'lim jarayoniga kehg joriy etish zamonaviy talabalar tayyorgarligini muhim qismi hisoblanadi.

Quroqchilik ko'pincha dizaynerlar taqdim etadigan modellarning faqat kichik bir qismini egallaydi. Biroq, kombinatorika texnikasi yordamida juda ko'p imkoniyatlarni amalga oshirsa bo'ladi.

Liboslarda pechwork uslubi nafakat romantik, balki jozibali hamdir. Original uslubdagi yorqin kiyimlar eng qulay va zamonaviy ko'rinadi. Shuningdek, bu uslub yosh zamonaviy ayollar uchun ko'proq mos bo'lib, katta yoshli ayollar uchun esa stilistlar tomonidan mayin neytral rangli mahsulotlar tavsiya etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizni asoslashda mavzuni tushuntirishda qo'l kelishi mumkin bo'lgan ilmiy farazlarga e'tibor qaratdik. Biz tadqiqotimizni yoritishda O'zbekistonlik olimlardan Q.M.Abdullayeva, S.S.Bulatov, O'.Tolipov, D.Umarbekova, Sh.S.Sharipovlarning texnologiya ta'limining bo'lajak o'qituvchilarning tayyorlashning ilmiy-pedagogik va metodik asoslari, ularning ijodiy salohiyatini shakllantirishning samarali yo'llari va o'quvchilarning ongli, faol va



mustaqil ishlashi masalalariga doir fikr-mulohazalariga tayandik.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy ta'lim talabalarni faqat nazariy bilimga emas, balki amaliy ko'nikma, ijodiy fikrlash va ekologik madaniyatga ega bo'lishga yo'naltirilmoqda. Shular qatorida quroqchilik – material qoldiqlarini (mato, teri, ip) ulash, qavish, tikish va qayta ishlash orqali yangi, foydali buyumlar tayyorlash milliy hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

Quroq-bu mayda bo'laklardan ulab, to'plab bezak yaratishdir. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Quroq amaliy san'at bezak elementlaridan biri hisoblanib, maishiy hayotda keng qo'llaniladi. Masalan: ko'rpa, ko'rpacha, yostiq, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlarni tayyorlab ajoyib san'at namunalarini yaratish mumkin.

Har bir quroq tayyorlash jarayonida ijodkordan o'ziga xos yondoshuv, did va sabr talab etiladi. Chunki, haqiqiy quroq ushbu omillar vositasida san'at asari ko'rinishini oladi. Quroq ijodkori asarida o'zining estetik didini, shu bilan birga o'lkasining mahalliy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Quroqlarda tabiat ko'rinishi, maishiy sahnalar, handasaviy kompozitsiyalar namoyon bo'ladi. Quroqchilik san'ati orqali xalq ijodiyotidagi qadimiy bezaklar, ramzlar, belgilar jonlanadi. Dekorativ va tasviriy

motivlar tiniq, sodda jaranglaydi va ular iliq rangli matolar vositasida bajariladi.

Quroq tikish ko'p asrlik tarixga ega. Har bir millatning quroqchilik borasida o'z maktabi, uslublari mavjud.

Quroq tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu san'at – mayda yoki qiyqim mato bo'laklarini bir-biriga ulab, ro'zg'or uchun kerakli buyumlar yaratish – qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Xususan, Yevropaga ushbu usul Sharqdan kirib kelgan bo'lib, pechwork nomi ostida mashhurdir.

Ayrim adabiyotlarda mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuzaga kelgan vaqtda ochlikdan qiynalgan xalq ro'zg'or qilish uchun quroq tikishga majbur bo'lgan deb yozilgan. Ammo, insonlarni quroq tikishga undagan asosiy kuch bu ularning ijodkorlikka, yangilik va go'zallik yaratishga, o'z ijodiy qobiliyatini va yaratuvchanlik mahoratini yorqin tarzda ifodalashga bo'lgan intilishidir.

Qadimdan yurtimiz ayollari tomonidan quroqlarning turfa xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan. Hech bir o'zbek xonadoni yuqki quroq uslubida yaratilgan amaliy san'at namunalaridan foydalanmasa. Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyat va ezgu istaklar ramzidir. Masalan, qadimdan yurtimizda har bir qiz turmushga chiqishi oldidan kelinlik sepi uchun o'z qo'llari bilan quroq san'atidan



foydalangan holda buyumlar tikishi lozim bo'lgan. Dono momolarimizning hikmatiga binoan quroq qurayotgan qiz o'z baxtini jamlayotgan hisoblanib, o'sha qiz albatta baxtli bo'lar ekan. Shu bilan birgalikda quroq qurash jarayoni inson uchun ma'naviy ozuqa bo'lib, miyani dam oldirish xususiyatiga ham ega.

Quroqlarning barchasi shakli, bezaklariga ko'ra o'ziga hos bo'lgan ma'no, mazmunga ega bo'lsada, aslida ular barchasining tub negizida xalqimizga xos bo'lgan yagona ezgu- maqsad yotadi, u ham bo'lsa momolarimiz ta'biri bilan aytganda, "yurtimiz insonlari ulashib, qurashib, farzandlari esa bir- birini quvlab yursin". Demak, quroq yordamida yaratilgan amaliy san'at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda quroq tikish san'atini umumbashariy desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, ushbu san'at turi yordamida yaratilgan buyumlar ko'plab millatlar maishiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi va bu san'at turi quroq ijodkorining iqtidorini namoyon etadi. Bu san'at turi orqali barcha xalqlar madaniyatida umumiy jihat mavjud ekanligini ko'rish va tahlil qilish mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlari hamda Rossiya federatsiyasi aholisi bu borada yetakchilik qiladi.

Shuningdek, quroq tikish san'atini o'rganish o'zbek xalq hunarmandchiligi maktablarining o'ziga xosligi, hududlar an'analari va kasanachi ustalar didini

yaxshi bilishga, uni alohida badiiy jarayon sifatida zamonaviy xalq amaliy san'ati taraqqiyotida tutgan o'rni va rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbek xalq amaliy san'at tarixidan quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik did sohibi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejankor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'ati asari namunalardagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki, san'at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko'rinish xalq turmush tarzi, orzu umidlari va an'alarini o'zida aks ettiradi.

Quroqlarning chiroyli chiqishi unda tanlangan gazlama qiyqimlarining tolaviy tarkibi, qiyqimlarning, ranglar uyg'unligi, mutanosibligi, iplarni to'g'ri tanlanishi, ishlov berish sifati hamda chevarning ijodkorlik qobiliyatiga bog'liq.

XULOSA

Milliy an'analarga asoslangan quroqchilik ta'lim jarayonida samarali yo'nalish hisoblanadi. U faqat ishlab chiqarish texnikasi emas, balki milliy badiiy meros, ekologik ong, ijodiy fikrlash va amaliyotga moyillikni birlashtiradiki, bu talabalarning har tamonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Quroqchilik-bu kamnarx, mazmunli va milliy ruhga boy pedagogic yo'nalish bo'lib, uni ta'lim jarayoniga kehg joriy etish zamonaviy talabalar tayyorgarligini muhim qismi hisoblanadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston 2017 yil, -489b.

2. Daholar dayrasi, Hamidjon Homidiy, Samarqand davlat universiteti, O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011

ORAOSIS

3. Gulchexra Ozodovna Sultanova (2023). XORAZMDA CHITGARLIK VA MATOGA GUL BOSISH SAN'ATI. Oriental Art and Culture, 4 (2), 694-699.

4. Sultanova G. Xorazm amaliy san'ati asarlarini muzeylashtirishda terminlarni o'rganishning ahamiyati O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. Zamonaviy tasviriy va amaliy san'at: terminologiya, yutuqlar va muammolar. Respublika ilmiy-amaliy seminar to'plami 2022. – B. 40–45

5. Нагель О. Художественное лоскутное шитьё: Основы лоскутного шитья и традиции народного текстильного лоскута: Учебно-методическое пособие для учителя. — М.: Шк.-Пресс, 2000. — 95 с. — (Библиотека журнала “Школа и производство”). — ISBN 5-88527-268-9

6. Анализ техник лоскутного шитья, Келесова У.С., Никитюк Е.А., Синявская А., Таразский государственный университет им. М.Х https://ru.wikipedia.org/wiki/Лоскутное_шитьё#CITEREFНагель2000, Лоскутное шитьё, 12.06.2022

7. Шитьё из лоскутков, И. Муханова, Наука и жизнь, №2, 1998

8. Штауб-Ваксхмут Б. Пэчворк и квилт. Лоскутное шитьё. — Профиздат, 2007. — ISBN 978-5-255-01535-1

9. Иванова Ю. Игра в лоскуты, Веры Щербаковой. — Тверь: Культура и традиции, 2007. — ISBN 5-864-44126-0

10. Лоскутное шитьё как способ рационального использования отходов швейного производства, Научная статья, Х. Х. Саидова, Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара, УДК: 677.021.125, 2021

11. S.S. Safasheva. Milliy an'analari asosida talabalarni quroqchilikka o'rgatish metodikasini takomillashtirish. PEDAGOGIKA. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 6/2025, 264-268b

12. S.S. Safasheva. Quroq texnikasini qo'llash resurstejamkor texnologiyaning muhim instrumenti sifatida qo'llanilishi. 2025-yil 4-dekabr Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan o'tkazilgan “Shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim- tarbiyani tashkil etishning innovatsion modellari va uni pedagogik jarayonga transformatsiyalash mexanizmlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya .